

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7–16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i> ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i> SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i> UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i> QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i> "JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i> YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i> SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i> FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i> ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжоновна Зилола</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i> OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILLIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARINING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилатхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (НСV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

GEOGRAFIYA FANLARI

FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH

Umarov Javohir Umidjon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti Tabiiy geografiya ixtisosligi

2-bosqich tayanch doktoranti

Email: javohirumarov07071997@gmail.com

ORCID:0009-0009-9834-2888

Annotatsiya. Mazkur tezisda Farg'ona viloyatining tabiiy-geografik o'rni, landshaft-balandlik mintaqalanishi, tuproq qoplamining sho'rlanish darajasi hamda sug'orish suvlaridan foydalanish samaradorligi kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida yer va suv resurslaridan foydalanishdagi tizimli nomutanosibliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish hamda qishloq xo'jaligi yerlarining iqtisodiy va ekologik samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yer resurslari, qishloq xo'jaligi samaradorligi, landshaft-balandlik mintaqalanishi, tuproq sho'rlanishi, meliorativ holat, sug'orish suvlaridan foydalanish, suv resurslari tejamkorligi, Farg'ona viloyati.

COMPLEX ASSESSMENT OF THE EFFICIENCY OF USING LAND RESOURCES IN AGRICULTURE OF FERGANA REGION

Umarov Javohir Umidjon oglu

Kokand State University, Department of Natural Geography

2nd year basic doctoral student

Annotation This thesis analyzes the natural and geographical location of the Fergana region, its landscape-altitude zoning, the level of soil salinity, and the efficiency of irrigation water use based on an integrated approach. During the research, systematic imbalances in the use of land and water resources were identified, and scientific and practical proposals were developed to eliminate them and increase the economic and environmental efficiency of agricultural lands.

Keywords: land resources, agricultural efficiency, landscape-altitude zoning, soil salinity, land reclamation, irrigation water use, water resource efficiency, Fergana region.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i2/n36>

KIRISH

Yer resurslari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy omili bo'lib, moddiy ne'matlar yaratish, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Yer insoniyat faoliyatining barcha bosqichlarida ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, uning iqtisodiy qiymati nafaqat hosildorlik darajasi, balki ekologik barqarorlik va hududiy rivojlanish bilan ham chambarchas bog'liqdir. [1; B.23-29.].

Yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan tub farqi uning tabiiy resurs sifatida cheklanganligi, qayta tiklanmasligi hamda miqdoran kengaytirib bo'lmazligidadir. Shu sababli yer resurslaridan foydalanishda faqat iqtisodiy foyda emas, balki ekologik muvozanatni saqlash, tuproq unumdorligini tiklash va kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish zarur. Bu

esa yer resurslarini boshqarishda geografik yondashuv bilan iqtisodiy samaradorlik tamoyillarini uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Geografik nuqtayi nazardan yer resurslari tabiiy-iqlim sharoitlari, relyef, tuproq qoplami, suv resurslari va landshaft-balandlik mintaqalanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu omillar qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi va ekinlar joylashuvini belgilab beradi. Iqtisodiy jihatdan esa yer resurslari ishlab chiqarish tannarxi, hosildorlik, rentabellik va bozor raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Farg'ona viloyati sharoitida yer resurslaridan foydalanish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Viloyat O'zbekistonning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri bo'lib, yerga bo'lgan bosim yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qariyb 95 foizi sug'oriladigan yerlar hisobiga yetishtirilishi suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligini keskin oshirishni talab qiladi. Shu bilan birga, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati, tuproq sho'rlanishi va suv ta'minotidagi nomutanosibliklar mavjud muammolarni yanada murakkablashtirmoqda. [2; B. 29.].

Iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslarining cheklanishi, sug'orish suvlarining tannarxi oshib borishi hamda tuproq degradatsiyasi jarayonlarining kuchayishi yer resurslaridan foydalanishga kompleks va tizimli yondashuvni zarur etmoqda. Shu bois Farg'ona viloyati yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanish samaradorligini geografik, iqtisodiy va ekologik mezonlar asosida baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanish samaradorligini baholash masalasi mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. O'zbekistonlik tadqiqotchilar asosan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati, tuproq sho'rlanishi va sizot suvlarining yuqori sathi qishloq xo'jaligi hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlaydilar. Ushbu ilmiy ishlarda kollektor-drenaj tizimlarini takomillashtirish va meliorativ tadbirlarni kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan. [3; B. 92.].

Geograf olimlar tadqiqotlarida landshaft-balandlik mintaqalanishining ahamiyati alohida qayd etilib, relyefni inobatga olmagan holda olib borilgan dehqonchilik faoliyati tuproq eroziyasi va suv resurslarining samarasiz sarflanishiga olib kelishi ko'rsatilgan. Iqtisodchi olimlar esa yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini hosildorlik, tannarx va rentabellik ko'rsatkichlari orqali baholab, suv narxining oshishi resurs tejankor texnologiyalarni joriy etishni taqozo etishini ta'kidlaydilar.

Xorijiy adabiyotlarda barqaror qishloq xo'jaligi konsepsiyasi doirasida innovatsion sug'orish texnologiyalarining suvni tejash va hosildorlikni oshirishdagi roli asoslab berilgan. Shunga qaramay, Farg'ona viloyati sharoitida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini kompleks baholash masalasi yetarli darajada tizimli o'rganilmagan bo'lib, mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. [4; B. 95.].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Farg'ona viloyati yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanish samaradorligi, avvalo, hududning murakkab geomorfologik tuzilishi va landshaft-balandlik mintaqalanishi bilan bevosita bog'liqdir. Relyef va balandlik zonalarining xilma-xilligi qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, sug'orish tizimlarini tashkil etish hamda agrotexnologiyalarni tanlashda asosiy tabiiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Viloyat hududi uchta asosiy landshaft-balandlik mintaqasini qamrab oladi. Tekislik mintaqasi (301–600 m) sug'oriladigan dehqonchilik yaxshi rivojlangan hudud bo'lib, bu yerda paxta va g'alla yetishtirish ustunlik qiladi. Ushbu zonada irrigatsiya tarmoqlari nisbatan yaxshi shakllangan bo'lsa-da, suvdan me'yorida ortiq foydalanish holatlari kuzatiladi. Adir mintaqasi (600–1000 m) bog'dorchilik va uzumchilik uchun qulay bo'lib, ammo relyefning qiyaligi sababli noto'g'ri sug'orish tuproq eroziyasiga olib kelmoqda. Tog'oldi mintaqasi (1000–1500 m) asosan yaylovlar va ko'p yillik ekinlar bilan band bo'lib, bu hududlarda tabiiy sharoitga mos foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyatning janubiy va sharqiy tumanlarida (Farg'ona, Quva, Oltiariq) yonbag'ir qiyaliklarining 8–15° dan 35° gacha yetishi an'anaviy ochiq sug'orish usullarining samarasizligini yanada kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda suv oqimi tuproqning unumdor qatlamini yuvib ketib, suv eroziyasini kuchaytiradi va hosildorlikning pasayishiga olib keladi. Relyef tuproq hosil bo'lish jarayonlariga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida quyosh nuri, yog'ingarchilik va suv rejimining hududiy farqlanishini belgilaydi. [5; B. 57.].

Tuproq qoplamining sho'rlanish darajasi va meliorativ holatini tahlil qilish natijalari ham yer resurslaridan foydalanish samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolar mavjudligini ko'rsatdi. So'nggi yillarda yer resurslaridan intensiv foydalanish, sug'orish me'yorlariga rioya qilinmasligi va meliorativ tadbirlarning yetarli darajada olib borilmasligi natijasida viloyatning ayrim hududlarida sho'rlanish va botqoqlanish jarayonlari kuchaygan.


Tumanlar kesimida sho'rlanish darajasi sezilarli farqlanadi. Past sho'rlangan yerlar (0–4%) asosan Farg'ona tumanida joylashib, yuqori hosildorlik bilan ajralib turadi. O'rtacha sho'rlangan yerlar (25–39%) Yozyovon, Bag'dod va Uchko'prik tumanlariga xos bo'lib, bu holat sizot suvlarining yer yuzasiga yaqin joylashuvi bilan izohlanadi. Yuqori sho'rlangan yerlar (70–86%) esa Beshariq, Furqat va Shohimardon hududlarining ayrim qismlarida keng tarqalgan bo'lib, bu yerlarda dehqonchilik samaradorligi keskin pasaygan. Ushbu holat meliorativ tadbirlarni kuchaytirish zarurligini yaqqol ko'rsatadi. [6; B. 92.].

Sug'orish suvlaridan foydalanish samaradorligini 2000–2018-yillar kesimida tahlil qilish viloyatda suv resurslaridan foydalanishda jiddiy nomutanosibliklar mavjudligini aniqladi. Paxtachilikda 1 gektar maydonni sug'orish uchun rejadagi 8130 m³ suv o'rniga amalda 8635 m³ suv sarflangan. Natijada 1 tonna paxta yetishtirish uchun o'rtacha 3320 m³ suv ishlatilgan bo'lib, hosildorlik gektariga 27,0 sentnerni tashkil etgan. G'allachilikda esa vaziyat yanada murakkab bo'lib, 1 gektar maydon uchun rejalashtirilgan 5107 m³ suv o'rniga amalda 10137 m³ suv sarflangan. Hosildorlik reja ko'rsatkichidan 110,6 foizga bajarilgan bo'lsa-da, suvdan foydalanish samaradorligi past bo'lib qolgan.

Suv resurslaridan foydalanishdagi iqtisodiy bosim ham keskin oshgan. Xususan, 1 m³/sek suvning tannarxi 2000-yilda 0,87 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilga kelib bu ko'rsatkich 29,7 so'mgacha oshgan. Bu holat suv resurslaridan tejamkor va innovatsion usullarda foydalanishni taqozo etadi.

O'tkazilgan tahlillar asosida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator kompleks yechimlar taklif etildi. Jumladan, adir mintaqalaridagi bog' va uzumzorlarda gektariga 6–7 mln so'm xarajat evaziga past bosimli tomchilatib sug'orish hamda yer ostidan sug'orish tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Sug'oriladigan yerlarda suv hisobini yuritish va raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish suv sarfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Sho'rlangan yerlarda meliorativ tadbirlarni kuchaytirish, kollektor-drenaj tizimlarini rekonstruksiya qilish muhim ahamiyatga ega. Xususan, AQSH tajribasiga asoslanib, yirik magistral kanallar qirg'oqlaridagi filtratsiya suvlarini kichik havzalarda to'plash va ularni sug'orishga qayta yo'naltirish suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, sizot suvlarini me'yorda ushlab turish uchun mavjud vertikal zovur quduqlarini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash va ularni modernizatsiya qilish zarur.



1-2-rasm. 2015–2025-yillarda Farg'ona viloyati yer resurslaridan foydalanish dinamikasining qiyosiy tahlili


2015 va 2025-yillarga oid yer resurslaridan foydalanish xaritalarining qiyosiy tahlili Farg'ona viloyatida so'nggi o'n yil davomida yuz bergan muhim hududiy va funksional o'zgarishlarni yaqqol namoyon etadi. Mazkur davrda viloyatning agrar hududi sezilarli darajada transformatsiyaga uchrab, qishloq xo'jaligi yerlarining strukturasi va joylashuvida jiddiy siljishlar kuzatilgan.

Avvalo, viloyatning markaziy va sharqiy qismlarida urbanizatsiya jarayonlarining keskin jadallashgani aniqlanadi. Aholi punktlari hududlarining kengayishi, asosan, unumdor sug'oriladigan ekin maydonlari hisobiga amalga oshirilgan. Natijada, ilgari yaxlit va uzluksiz bo'lgan qishloq xo'jaligi yer massivlari turar-joy va infratuzilma obyektlari bilan parchalangan. Ushbu holat xaritalarda qizil rangli antropogen hududlarning keskin ko'payishi va yashil rangdagi qishloq xo'jaligi yerlarining maydalanishi orqali yaqqol ifodalanadi. Bu jarayon "yalpi urbanizatsiya" xususiyatiga ega bo'lib, agrar landshaftlarning ichki fragmentatsiyasini kuchaytirgan. [7; B. 87.].

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, 2015-yilda nisbatan kompakt va uzluksiz bo'lgan agrolandshaftlar 2025-yilga kelib o'z yaxlitligini sezilarli darajada yo'qotgan. Qishloq xo'jaligi yerlarining bunday qisqarishi va maydalanishi ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, yirik ekin maydonlarining parchalanishi zamonaviy mexanizatsiya vositalaridan samarali foydalanish va klaster usulida dehqonchilikni tashkil etish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, turar-joy massivlarining ekin maydonlari ichiga kirib borishi sug'orish va melioratsiya tarmoqlarining yaxlit ishlashiga putur yetkazmoqda.

Xaritalar asosidagi tahlil yer fondidan foydalanishning hududiy nomutanosibligini ham ko'rsatadi. Eng unumdor tekislik mintaqalari, ya'ni sug'oriladigan dehqonchilik uchun qulay hududlar qurilish obyektlari bilan zich band qilinayotgan bir paytda, janubiy adirlik va cho'l hududlaridagi yaylov yerlari nisbatan barqaror saqlanib qolgan. Biroq asosiy "yashil hudud"lar markazida joylashgan qishloq xo'jaligi yerlarining qisqarishi viloyat agrar salohiyatiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. [8; B. 95.].

Kompleks baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, 2025-yil holatiga kelib Farg'ona viloyatida yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanish ekstensiv rivojlanish bosqichidan majburiy intensiv rivojlanish bosqichiga o'tgan. Ya'ni, yer maydonlari fizik jihatdan qisqarib borayotgan bir sharoitda, aholi sonining o'sishi va oziq-ovqatga bo'lgan talabning ortishi mavjud yer resurslaridan olinadigan hosildorlikni keskin oshirishni talab etmoqda.



3-rasm. Farg'ona viloyati hududining balandlik zonalligi va yonbag'ir qiyalik ko'rsatkichlari asosida geomorfologik tavsifi

Mazkur xarita Farg'ona viloyatining landshaft-balandlik mintaqalanishi va yonbag'ir qiyalik ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Xarita asosida viloyat hududining relyef tuzilishi, balandlik darajalari hamda yer yuzasining qiyalik xususiyatlari kompleks baholangan. Bunda yer resurslaridan, ayniqsa qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim geografik omillar tasvirlangan.

Xaritada viloyat hududi 301–500 metr balandlikdagi tekisliklardan boshlab, 2 500 metrdan yuqori baland tog'li mintaqalargacha bo'lgan besh asosiy balandlik zonalariga ajratilgan. Eng katta maydonni egallagan tekislik va adir mintaqalari (301–1 000 m) viloyatning markaziy va g'arbiy qismlarida joylashib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun eng qulay

hududlar hisoblanadi. Ushbu zonalarda sug'oriladigan dehqonchilik, intensiv ekin maydonlari va aholi punktlari zich joylashgan.

Xaritaning shimoliy va sharqiy qismlarida tog' oldi va tog' mintaqalari (1 000–2 500 m va undan yuqori) ajralib turadi. Bu hududlarda yonbag'ir qiyaliklari keskin bo'lib, yerlarning katta qismi o'rtacha va tik qiyaliklarga ega. Natijada bu zonlarda qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlari cheklangan bo'lib, asosan yaylovchilik, bog'dorchilik va eroziyaga qarshi tadbirlar talab etiladi.

Yonbag'ir qiyalik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatning asosiy qismi 0–4° gacha bo'lgan tekis va juda yassi yonbag'irlardan iborat bo'lib, bu hududlar intensiv dehqonchilik uchun qulay sharoitga ega. Shu bilan birga, 15° dan yuqori bo'lgan juda qiya va tik yonbag'irlar tog'li hududlarda to'plangan bo'lib, bu yerlarda tuproq eroziyasi xavfi yuqori ekanligi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, xarita Farg'ona viloyatida yer resurslaridan oqilona va hududiy jihatdan moslashgan holda foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Relyef va qiyalik xususiyatlarini hisobga olgan holda yerlarni zonalash, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish hamda meliorativ va muhofaza tadbirlarini rejalashtirish viloyat agrar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, meliorativ nazoratni kuchaytirish, sug'orish tarmoqlaridagi nosozliklarni bartaraf etish hamda zax suvlaridan samarali foydalanishni rag'batlantirish maqsadida fermer xo'jaliklariga subsidiya va imtiyozlar berish tizimini takomillashtirish yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. [9; B. 45.].

XULOSA

So'nggi o'n yil ichida Farg'ona viloyatining agrar qiyofasi sezilarli darajada o'zgarishlarga uchradi. Tadqiqotlar va hududiy monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi yerlarining an'anaviy ekin yetishtirish va dehqonchilik amaliyotlaridan boshqa, noqishloq xo'jaligi maqsadlariga o'tishi asosiy tendensiyaga aylangan. Bunda ayrim yer maydonlari sanoat, infratuzilma, shahar va boshqa noo'rganizatsiyalashgan foydalanish holatlariga jalb qilinmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini pasaytiradi va yer resurslarining samarali boshqarilishini murakkablashtiradi.

Mazkur jarayon qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish uchun yangi boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni talab etadi. Xususan, "vertikal dehqonchilik" konsepsiyasini rivojlantirish orqali yer maydonlaridan ko'p qavatli va intensiv foydalanish imkoniyatlari yaratiladi. Shu bilan birga, yerlarni qat'iy rayonlashtirish siyosatini amalga oshirish zarurati tug'iladi: ya'ni har bir hududning ekin turi, intensivligi va sug'orish tizimi aniq belgilanishi lozim. Bu choralar yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, hosildorlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Shuningdek, bunday strategiya orqali fermerlar va dehqonlarning resurslardan oqilona foydalanishi rag'batlantiriladi, ortiqcha bosimdan kelib chiqadigan tuproq eroziyasi va unumdorlik pasayishi kabi muammolar oldi olinadi. Natijada, viloyatning agrar sektorini zamonaviylashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'lida barqaror va tizimli yondashuvlar joriy etilishi mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kuzibaeva O., Ulengov R., Muminov D., Boratov A., Mahkamov J., Umarov J. Climate Change and its Impact on Southern Fergana Landscapes. J Open & Bioscience and Environment, 1(02), 17-23, 2025.
2. Umarov J. Farg'ona viloyati yer resurslarining salohiyati va ulardan foydalanishning hozirgi holati. ACTA NUUZ, 3(3.2.1), 337-340, 2025.
3. Umarov J. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq yuzaga keladigan ekologik muammolar. Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(59), 21-25, 2025.
4. Umarov J. Oziq-ovqat muammolarini hal etish masalalarida landshaft omilining o'rni va ahamiyatini o'rganish. Молодые ученые, 2(28), 54-56, 2024.
5. Umarov J. Oziq-ovqat muammolarini hal etish masalalarida landshaft omilining o'rni va ahamiyati. O'zMU Xabarlari, 1(3), 294-296, 2024.
6. Rahimberdiyeva K. D. Farg'ona viloyatida qishloq xo'jalik yerlarini suv bilan ta'minlashdagi muammolar va uning yechimlari. Farg'ona davlat universiteti, 2023.
7. Raxmonov O'. H. Yer-suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va xususiyatlari. Central Asian Journal of Education and Innovation, 2023.
8. Ahmadaliyev Yu. I. Yer resurslaridan foydalanishni hududiy tashkil etish. Monografiya, 2007.
9. Dehqonov B. M. Markaziy Farg'onada qishloq xo'jaligi yerlarini tadqiq etishda geografik omillarni o'rganishning ahamiyati. Andijon davlat universiteti, 2023.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.